

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERENARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI

VETERINARIYA JARROHLIGI VA AKUSHERLIK KAFEDRASI

PROFESSOR B.D.NARZIYEVNING

**“OPERATIV XIRURGIYA VA TOPOGRAFIK ANATOMIYA”
FANIDAN
« OYOQLARNING ANATOMO-TOPOGRAFIK TUZILISHI.
NERVLARNI OG‘RISIZLANTIRISH » MAVZUSIDAGI
OCHIQ MA’RUZA DARS**

Samarqand 2026

Tuzuvchi:

“Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrası
professor B.D.Narziyev

Taqrizchilar:

1. “Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya ” kafedrası dotsenti B.A.Kuliyev

2. Samarqand davlar tibbiyot universiteti “Yuz-jag‘ jarrohligi” kafedrası mudiri, t.f.n., dotsent G‘afforov U.B

15- MA'RUZA: OYOQLARNING ANATOMO-TOPOGRAFIK TUZILISHI. NERVLARNI OG'RIQSIZLANTURISH.

MA'RUZA REJASI:

1. Oldingi oyoqning otlar va yirik shoxli qoramollarda anatomo-topografik tuzilishi: chegaralari, qismlarga bo'linishi. Sinovial tuzilmalardagi operatsiyalar.
2. Bo'g'im kapsulasi, shilimshiq xaltachalar va pay qinlarining tuzilishi. Nervlarni o'tkazuvchan usulda og'riqsizlantirish.
3. Orqa oyoq. Anatomo-topografik ma'lumotlar, chegaralari, qismlarga bo'linishi. Orqa oyoq bo'g'imlari, pay va pay qinining operatsiyalari.
4. Barmoq amputatsiyasi va ekzartikulyatsiyasi texnikasi. Mayda hayvonlarda osteosintez texnikasi.

15-mavzu	“OYOQLARNING ANATOMO-TOPOGRAFIK TUZILISHI. NERVLARNI OG'RIQSIZLANTURISH.”
-----------------	--

1.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi

<i>O'quv soati -2 soat</i>	Talabalar soni - 60 - 65 nafar
<i>O'quv mashg'ulot shakli</i>	Kirish. Vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<p>1. Oldingi oyoqning otlar va yirik shoxli qoramollarda anatomo-topografik tuzilishi: chegaralari, qismlarga bo'linishi. Sinovial tuzilmalardagi operatsiyalar.</p> <p>2. Bo'g'im kapsulasi, shilimshiq xaltachalar va pay qinlarining tuzilishi. Nervlarni o'tkazuvchan usulda og'riqsizlantirish.</p> <p>3. Orqa oyoq. Anatomo-topografik ma'lumotlar, chegaralari, qismlarga bo'linishi. Orqa oyoq bo'g'imlari, pay va pay qinining operatsiyalari.</p> <p>4. Barmoq amputatsiyasi va ekzartikulyatsiyasi texnikasi. Mayda hayvonlarda osteosintez texnikasi.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Talabalarga to'g'risida oyoqlarning anatomo-topografik tuzilishi to'g'risida umumiy tushuncha berish. Bo'g'im kapsulasi, shilimshiq xaltachalar va pay qinlarining tuzilishi. Nervlarni o'tkazuvchan usulda og'riqsizlantirish va Barmoq amputatsiyasi va ekzartikulyatsiyasi texnikasi. Mayda hayvonlarda osteosintez texnikasini o'rgatish

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • oyoqlarning anatomo-topografik tuzilishi to'g'risida umumiy tushuncha berish. • Bo'g'im kapsulasi, shilimshiq xaltachalar va pay qinlarining tuzilishi. Nivrlarni o'tkazuvchan usulda og'riqsizlantirish • Orqa oyoq. Anatomo-topografik ma'lumotlar, chegaralari, qismlarga bo'linishi. Orqa oyoq bo'g'imlari, pay va pay qinining operatsiyalarini o'rgatish 	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalar mavzuning asosiy tushunchalarini o'zlashtiradilar. 2. Mavzuga doir aniq bilimlar doirasiga ega bo'ladilar. 3. Egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. 4. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga keladilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, og'zaki bayon etish, namoyish, suhbat, muammoli vaziyatlar, aqliy hujum.
<i>Ta'limni tashkiliy shakli.</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim vositalari</i>	Darslik, qo'llanma, ma'ruza matni, rasmlar, jadvallar, turli hayvonlarning oldingi va orqa oyoqlarining mulyajlari, videoproyektor, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus jixozlangan ma'ruzaxona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov, tezkor so'rov, aqliy hujum, muammoli savolar orqali so'rash va baholash.

1.2. Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ma'ruza Bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
1-bosqich. Ma'ruza mashg'ulotiga kirish (10-daqiqa)	1.1. Mavzu va uning maqsadi hamda vazifalarini o'rganishning ahamiyati, undan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. Reja va adabiyotlar beriladi.	1.1. Eshitadi, ko'radi va yozadi. 1.2. Savol beradi, aniqlik kiritadi
2-bosqich. Asosiy bo'lim (60-daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish uchun va bilim darajasini aniqlash maqsadida tezkor muammoli savol-javob o'tkaziladi. 2.2. O'quv didaktik vositalardan foydalanib ma'ruzaning asosiy nazariy qismlari quyidagi	2.1. Eshitadi, eslaydi, tahlil qiladi, so'ralganda javob beradi.

	loyiha asosida bayon qilingan holda talabalarga yangi ilmiy bilimlar beriladi:	2.2. Eshitadi, ko‘radi, yozadi, chizadi, tushunadi, tafakkur qiladi, xotirada saqlaydi va yangi bilimlarni o‘zlashtiradi.
3-bosqich. Umumlashtirish va yakunlash. (10-daqiqa)	3.1. Ma’ruza umumlashtiriladi va yakunlanadi. Talabalarning e’tibori takroran asosiy masalalarga qaratiladi. 3.2. Faol talabalar rag‘batlantiriladi. 3.3. Uyga vazifa beriladi.	3.1 Eshitadi, aniqlashtiradi 3.2. Topshiriqlar yozib olinadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Operativ xirurgiya – X.K. Rustamov, Ya.A. Axbutayev, B.D. Narziyev – 1997.
2. Operativnaya xirurgiya – I.I. Magda – 1990.
3. Xirurgiya krupnogo ragatogo skota – P.S. Kuznesov – 1974.
4. Operativnaya xirurgiya – I.K. Shomirzayev – 1987.
5. Novoye licheniye nezaraznqx bolezney selsko-xozyaystvenqx – V.R. Mosin – 1973.
6. A. David Weaver, Guy St Jean, Adrian Steiner “Bovine surgery and Lameness” USA, 2005

Internet va Ziyonet saytlari

www.Ziyonet.uz

WWW: zooveterinariya@mail.ru

WWW: sea@mail.net.ru

WWW: veterinary.actavis.ru

WWW: zootechniya.ru


WWW: fvat@academy.uzsei.net

O'QITISH TEXNOLOGIYASI

B.B.B. SXEMASI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<i>(dars boshida yoziladi, Talabining birlamchi bilimini baholash uchun)</i>	<i>(Dars boshida yoziladi, o'qituvchi ishini rejalash uchun)</i>	<i>(Dars oxirida yoziladi, talabining qo'shimcha olgan bilimini baholash uchun)</i>

Bilimlarni faollashtiruvchi savollar:



15- MA'RUZA: OYOQLARNING ANATOMO-TOPOGRAFIK TUZILISHI. NERVLARNI OG'RIQSIZLANTURISH.

MA'RUZA REJASI:

1. Oldingi oyoqning otlar va yirik shoxli qoramollarda anatomo-topografik tuzilishi: chegaralari, qismlarga bo'linishi. Sinovial tuzilmalardagi operatsiyalar.
2. Bo'g'im kapsulasi, shilimshiq xaltachalar va pay qinlarining tuzilishi. Nervlarni o'tkazuvchan usulda og'riqsizlantirish.
3. Orqa oyoq. Anatomo-topografik ma'lumotlar, chegaralari, qismlarga bo'linishi. Orqa oyoq bo'g'imlari, pay va pay qinining operatsiyalari.
4. Barmoq amputatsiyasi va ekzartikulyatsiyasi texnikasi. Mayda hayvonlarda osteosintez texnikasi.

Tayanch iboralar: bo'g'im, pay, pay qini, sinvial, nevr, amputasiya, ekzartikulyasiya, osteosintez.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Operativ xirurgiya – X.K. Rustamov, Ya.A. Axbutayev, B.D. Narziyev – 1997.
2. Operativnaya xirurgiya – I.I. Magda – 1990.
3. Xirurgiya krupnogo ragatogo skota – P.S. Kuznesov – 1974.
4. Operativnaya xirurgiya – I.K. Shomirzayev – 1987.
5. Novoye licheniye nezaraznqx bolezney selsko-xozyaystvenqx – V.R. Mosin – 1973.
6. A. David Weaver, Guy St Jean, Adrian Steiner “Bovine surgery and Lameness” USA, 2005

Oldingi oyoq quyidagi qismlarga bo‘linadi.

kurak–yelka qismi (regio scupolo humeralis) yuqori chegarasi –kurakni yuqori uchta bir qismida, pastki-tirsak tepaligini yuqorisidan; oldingi kurak-yelka bo‘g‘inini oldi tarafi bo‘yicha; orqadan tirsak chizig‘i.

Quyidagi qavatlardan iborat:

Muskul qavati:

1. O‘q oldi muskuli – m.supraspinelus kurak suyagining o‘q oldi chuqurchasini to‘ldirib turadi, kurak-yelka bo‘g‘inini yozuvchi muskuli.
2. Kichik yumaloq muskul – m.teres minor kichik va yupqa bo‘lib, o‘q orqasi va deltasimon muskullar orasida joylashadi. Bo‘g‘inga bukuvchi ta’sir qiladi.
3. O‘q orqasi muskuli – m.intraspinalus ko‘krak suyagining o‘qi orqasidagi chuqurchani to‘ldirib turadi. Oyoqlarni yaqinlashtiruvchi muskul.
4. Yelka suyagining uch boshli muskuli – m.triceps brachii. Bu muskul ko‘krak-yelka suyagi hosil qiluvchi uchburchakda joylashadi. Uzun, o‘rta va yonbosh boshga bo‘linadi. Tirsak bo‘g‘inini yozuvchi muskul.
5. Yelkani ikki boshli muskuli – m.biceps brachii. U yelka suyagini oldingi tarafida joylashadi, tuzulishi naysimon, ikki bo‘g‘inga ta’sir qilinadi. Yuqori pay ostida bursa joylashadi. Bu muskul yelka-kurak bo‘g‘inini yoradi, tirsak bo‘g‘imini bukadi.

Kurak osti muskuli – m.subscupularis kurak suyagini ostidagi chuqurchani to‘ldiradi. Oyoqlarni uzoqlashtiruvchi muskul.

Suyak usti pardasi.

Suyak-kurak va yelka suyaklari. Bular birlashib kerak-yelka bo‘g‘inini tashkil qiladi.

Bu bo‘g‘in ko‘p o‘qli bo‘g‘inga kiradi.

Tirsak bo‘g‘ini va bilak oblasti – region cubitalis et antibrachialis. Yuqori chegarasi yuqori qismini pastki chegarasi, pastdan kaft suyagini proksimal qismidan o‘tadi.

U quyidagi qatlamlardan iborat:

Muskul qavati lateral yuzadan o‘tadi:

1. Bilakuzuk bo‘g‘imini yozuvchi muskuli – m.extensa carpi radialis. Bu muskul yelka suyagidan boshlanib kaft suyagida tugaydi. Payni qin o‘rab turadi.
2. Barmoqlarni umumiy yozuvchi muskuli uzun bo‘lib, tirsak bo‘g‘imidan tuyoq suyagida tugaydi.

3. Barmoqlarni yon tomondan yozuvchi muskul, paylarini atrofida sinovial qin bo‘ladi.

4. Bilakuzuk bo‘g‘imini yozuvchi tirsak muskul, lekin bukish funksiyasini bajaradi.

Medial yuzadan:

1. Bilakuzuk bo‘g‘imini bukuvchi bilak muskuli – m.flexor carpi radialis tirsak bo‘g‘imidan boshlanib kaft suyagida tugaydi, pay qin bilan o‘ralgan.

2. Bilakuzuk bo‘g‘inini bukuvchi tirsak muskuli – m.flexor carpi ulnaris tirsak va yelka suyaklaridan boshlanib tuyoq suyagida tugaydi, pay qin bilan o‘ralgan.

3. Barmoqni bukuvchi yuza muskuli - m.flexor digitalis super facialis yelka suyagidan boshlanib barmoqlarda tugaydi.

4. Barmoqlarni bukuvchi chuqur muskul - m.flexor digitalis profundus yuza muskulni payi bilan birlashadi, atrofi qin bilan o‘ralgan.

5-qavat suyak usti qavati.

6-qavat suyak-bilak va tirsak suyaklari, bilakuzuk suyaklari va kaft suyagi.

Yelka, bilak, tirsak suyaklari tirsak bo‘g‘imini tashkil qiladi.

Bilak, bilakuzuk suyaklari va kaft suyagi bilakuzuk bo‘g‘imini tashkil qiladi, uchta bo‘g‘imdan tashkil topgan – bilak-bilakuzuk, qatoraro, bilakuzuk kaft.

Kaft va barmoq qismi – regio metacarpi et digitalis yuqori chegarasi oldingi qismini pastki chegarasi, pastdan tuyoq bilan chegaralangan.

Birinchi barmoq suyagi tushoq, ikkinchisi yumaloq va uchinchisi tuyoqsimon suyak deyiladi.

Oldingi oyoq quyidagi nervlar bilan innervasiyasi ta‘minlanadi. Ko‘krak osti nervi, qo‘ltiq nervi, bilak nervi, tirsak nervi, o‘rta nerv.

O‘rta nervni og‘riqsizlantirish

Ko‘rsatma. Bilak va bilakuzukda o‘tkaziladigan operatsiya vaqtida.

Texnikasi. Bilakni medial yuzasida igna sanchiladi, bilak suyagi va bilakuzuk bo‘g‘imini bukuvchi bilak muskuli oraliq‘ida. 1-1,5 sm chuqurligida, 10 ml 3 % li novokain eritmasi yuboriladi. Magda esa bilakuzuk bo‘g‘imini bukuvchi bilak va tirsak muskullari oraliq‘iga yuborishni tavsiya qiladi.

Tirsak nervini og‘riqsizlantirish.

Texnikasi. Bilakni volyar yuzasida yordamchi suyakdan 8-10 sm yuqoriga bilakuzukni yozuvchi va bukuvchi tirsak muskullari oraliq‘iga 1-1,5 sm chuqurlikka sanchiladi va 10 ml 3 % li novokain eritmasi yuboriladi.

Oyoqlarda quyidagi sinovial tuzilmalar bor: bo‘g‘inlar kapsulasi, shilimshiq xalta va paysimon sinovial qin.

Bo‘g‘inlarni butun ustki tomonini biriktiruvchi to‘qimadan hosil bo‘lgan parda shaklidagi kapsula o‘rab oladi. U ikki qavatdan iborat: tashqi fibroz va ichki sinovial, bu qavat sinovial suyuqligini ajratadi. Fibroz parda suyak pardasining davomi bo‘lib, bir suyakdan ikkinchisiga o‘tadi.

Shilimshiq xaltacha – bursa ko‘p harakat qiladigan va harakat vaqtida ishqalanadigan muskullarni payi ostida joylashadi. Ichki qavatiga qarab ular shilimshiq yoki sinovial bursaga bo‘linadi, oxirgisi bo‘g‘inlar bilan birlashgan. U 4 qavatdan iborat – epitelioid, yupqa, yo‘g‘on tolali va fibroz.

Paysimon sinovial qin – oyoq muskullarining paysimon qismini o‘rab olib, muskullarning oson ishlashini ta‘minlaydi. U ikki qavatdan iborat: fibroz va sinovial. Sinovial qavati ikkita pardadan tashkil topgan – visseral payga yaqin, pariyetal fibroz qavatiga yaqin.

Yelka bo‘g‘imining punksiyasi

Ko‘rsatma. Diagnostika va davolash uchun.

Texnikasi. Yonbosh holatda fiksasiya qilinadi, tashqi tarafdin tashqi va tashqi orqa tepacha oralig‘iga igna sanchiladi 4-5 sm chuqurlikgacha.

Ikki boshli muskulni pay osti shilimshiq bursani punksiyasi

Fiksasiya. Tik holatda fiksasiya qilinadi.

Texnikasi. Muskulni yuqori payi va orqa suyagm oralig‘ida ariqcha tagiga igna sanchiladi, yo‘nalishi pastdan yuqoriga va 3-4 sm ichkariroq.

Orqa oyoq

Hayvonlarni orqa oyog‘i quyidagi qismlarga bo‘linadi:

Sag‘rin-son qismi – yuqori chegarasi o‘rta chiziq bo‘yicha, pastdan tizza bo‘g‘ini yuqori qismidan, oldida sonning keng fassiyasini taranglovchi muskul bo‘yicha.

Quyidagi qismlardan iborat:

Muskul qavati:

1. Sag‘rinning yuza muskuli;
2. Sag‘rining o‘rta muskuli;
3. Sag‘rining chuqur muskuli;
4. Noksimon muskul – o‘rta muskul bilan birlashgan;
5. Sonni ikki boshli muskuli – m.bicepa femoris dumg‘aza va quymich qismi bo‘ladi. shu suyaklardan boshlanib to boldir suyagigacha boradi;
6. Yarim pay muskuli – m.genifendinosus birinchi dum umurtqasida boshlanib to boldir suyagigacha boradi;
7. Yarim parda muskuli – m.semumembranus quymich suyagidan boshlanib son suyagini distal qismida tugaydi;
8. Sonning to‘rt boshli muskuli yozuvchi muskul to‘g‘ri, yon, o‘rta va oraliq boshi bo‘ladi;
9. Bukuvchi muskul – sonni o‘rta yuzasida joylashadi;
10. Taroqsimon muskul – tos-son bo‘g‘imini bukadi, oyoqni oldinga ko‘taradi;
11. Nozik muskul – sonni ichki yuzasida joylashadi. Tos suyagini boshida boshlanadi va boldir suyagini tarog‘ida tugaydi.

Suyak usti pardasi.

Suyak - tos va son suyaklari birikib tos-son bo‘g‘imini tashkil qiladi.

Tizza bo‘g‘imi va boldir qismi quyidagi qavtlardan iborat:

Yozuvchi muskullar:

1. Boldirning uch boshli muskuli: shundan ikkitasi boldirning lentasimon yon, o‘rta muskullari, uchinchi tovon muskuli.

2. Katta boldir suyagining oldingi muskuli boldir suyakni oldingi qismida joylashgan, kaft suyagida tugaydi.

3. Kichik boldir suyagining uchinchi muskuli – bukuvchi, son suyagida boshlanib kaftda tugaydi.

4. Kichik boldir suyagining uzun muskuli katta boldir suyagini yon do‘mbog‘ida boshlanib I tovon suyagida tugaydi.

5. Barmoq bo‘g‘imlarini yozuvchi muskul.

6. Barmoqlarni yon tomonga yozuvchi muskul.

7. Barmoqlarni yuukuvchi yuza muskul.

8. Barmoqlarni bukuvchi chuqur muskul.

Suyak usti qavati -

Suyak – tizza, katta, kichik boldir suyagi son suyagi bular birlashib son-boldir bo‘g‘inini tashkil qiladi. Tizza qopqog‘i va son suyagi birlashib tizza qopqog‘i bo‘g‘inini hosil qiladi. Bo‘g‘in murakkab, ikki o‘qli, kapsuladan tashqari 4 pay yordamida berkiladi.

Yirik shoxli mollarni uchinchi barmog‘ini olib tashlash (ekzartikulyasiya)

Ko‘rsatma. Yiringli artrit, bukuvchi paylarni chirishi, suyakni chirishi.

Operasiyaga tayyorlash – sh[eyetka yordamida yuvilib tozalanadi.

Fiksasiya – yotgan holatda.

Og‘riqsizlantirish – neyroleptik, volyar nervlarni sirkulyar og‘riqsizlantirish.

Texnikasi. Kaft qismida qonni to‘xtatuvchi jgut qo‘yiladi. tuyoqni kesib olib tashlashdan oldin unda chiziq o‘tkaziladi, oldi tarafdin to yumshoq tovongacha, 3 sm shundan pastroq arra yordamida kesiladi, qoldiq to‘qimlar suyak parchalari olib tashlanadi va yumaloq suyakni tog‘ayi qirib tashlanadi. Antibiotiklar sepiladi va qarag‘ay moyi bilan qattiq bog‘lab qo‘yiladi. 10-15 kundan keyin qoldiq bitadi va shox qavati paydo bo‘ladi.

Yirik shoxli mollarni barmog‘ini amputasiyasi

Ko‘rsatmasi. 2-3 barmoq bo‘g‘inlarini yiringli yallig‘lanish, chirish jarayonlari, yamurni asoratlari tuyoq yuvilib tozalanadi.

Fiksasiya – yotgan holatda.

Og‘riqsizlantirish – neyroleptik, volyar nervlarni og‘riqsizlantirish.

Texnikasi. Qon to‘xtatuvchi jgut qo‘yiladi. amputasiyani tushov suyagi orqali olib borish kerak. Operasiyani dorsal yuzadan kesish bilan boshlanadi, tuyoqni jiyagigacha kesib boriladi, keyin tuyoq oralig‘i kesiladi va shunday qilib volyar yuzada ham teri kesiladi va teri qurog‘i ajratilib olinadi. Qaychi yordamida paylar kesiladi, keyin arra yordamida yuqoridan pastga qiya qilib suyak kesiladi va olib tashlanadi. Oxirida qon oqishi to‘xtatiladi, ajratilgan to‘qimalar olib tashlanadi, antibiotiklar sepiladi. Preparovka qilingan teri uzlukli chok bilan tikiladi.

Quymich nervini og‘riqsizlantirish

Ko‘rsatmasi. Trofik yaralarni davolash va oyoqni pastki qismida o‘tkaziladigan operasiyalar vaqtida. Bu og‘riqsizlantirishni o‘tkazgan vaqtda hayvon 2-3 soat yetkan holatda bo‘lishi kerak.

Texnikasi. Otlarda: Yotgan holatda fiksasiya qilinadi, orqa oyog‘i bukilgan holatd. Ignani sanchish nuqtasi son suyagini katta do‘mbog‘idan 2-3 sm pastroq. 12-15 sm igna ishlatiladi. Operasiya maydonchasini tayyorlab igna to‘ suyakka

tekkuncha yuboriladi, 0,5-1,0 sm suyakdan siljilib 50-80 ml 4-5 % li novokin eritmasi yuboriladi. Og'riqsizlantirish 15-20 minutdan keyin vujudga keladi.

Yirik shoxli hayvonlarda: fiksasiya yuqorida aytilgandek bajariladi. Iggni sanchish nuqtasi son suyagini katta do'mbog'ini orqa qirrasidan. Igna suyakka tekkuncha yuboriladi, 1.5-2 sm siljilib 60-80 ml 4-5 % li novokain eritmasi yuboriladi.

Tizza qopqog'i bo'g'imini punksiyasi

Ko'rsatma. Diagnostika va davolash uchun.

Fiksasiya. Turgan yoki yotkan holatda.

Texnikasi. Punksiya tashqi va o'rta yoki o'rta va ichki tizzani to'g'ri paylari oralig'ida qilinadi. Igna tizza kosachasida 2-3 sm pastroqqa sanchiladi, chuqurligi 3-5 sm. Ignani uchidan si noviya oqib tushishi kerak.

Katta boldir nervini og'riqsizlantirish.

Ko'rsatma. Diagnostika o'tkazish maqsadida yoki sakrash bo'g'ini va barmoqlarda o'tkaziladigan operatsiyalar vaqtida.

Texnikasi. Otni tik yoki yotkan holatda fiksasiya qilish mumkin. Ignani sanchish nuqtasi tovon ariqchasini ichki tarafidan, tovon tepachasidan 10-12 sm yuqoriga va tovon paydan 0,5-1 sm oldinga. Igna yuqoridan pastga yuboriladi 45-50° burchakda, chuqurligi 1-1,5 sm bo'lib, 20 ml 3-4 % li novokain eritmasi yuboriladi.

ЭЪТИБОРЛАРИНГИЗ

УЧУН РАХМАТ!